



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buyuk
davlat

2025-YIL — ATROF-MUHITNI ASRASH VA "YASHIL" IQTISODIYOT YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: info@xs.uz

2025 yil 30-mart, № 65 (8960)

Yakshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.



O'ZBEKISTON VA QOZOG'ISTON MUNOSABATLARI UMUMIY DO'STLIK VA YAXSHI QO'SHNIHLIK TAMOYILLARI ASOSIDA IZCHIL RIVOJLANMOQDA

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayevning taklifiga binoan 29-mart kuni oliy darajadagi norasmiy uchrashuv o'tkazish uchun amaliy tashrif bilan Olmaota shahrida bo'ldi.



Davlatimiz rahbarini Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev kutib oldi. O'zbekiston yetakchisi sharafiga faxriy qorovul saflandi va ikki mamlakat bayroqlari ko'tarildi.

O'zbekiston va Qozog'iston — eng yaqin qo'shni hamda ittifoqchi davlatlardir. Ularning munosabatlari umumiy do'stlik va yaxshi qo'shnihlilik tamoyillari asosida izchil rivojlanmoqda.

Dastlab O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev «Medeu» tog'-chang'i klasteriga tashrif buyurdilar.

Davlatimiz rahbariga sel-suv toshqinlaridan himoya qilish maqsadida dengiz sathidan 1750 metr balandlikda barpo etilgan «Medeu» tog'ining yaratilish tarixi va arxitekturaviy xususiyatlari haqida so'zlab berildi.

«Medeu» tog'ining tepasiga 842 pog'onadan iborat «Salomatlik zinapoyasi» olib boradi. 2011-yilda to'g'on yonida «Shimbuloq» tog'-chang'i maskaniga eltuvchi 4,5 kilometr uzunlikdagi dor yo'li qurilgan.

«Medeu» sport majmuasi 1972-yilda barpo etilgan bo'lib, dengiz sathidan 1700 metr balandlikda joylashgan.

Majmua muz maydonining yuzasi 10,5 ming kvadrat metr bo'lib, bir vaqtda 3 ming nafargacha kishini qabul qila oladi. Har yili unga 400 mingdan ortiq

mehmonlar tashrif buyuradi.

Bugungi kunda majmua sport, turizm va madaniyat klasteri sifatida faoliyat yuritmoqda. Sport musobaqalari, ommaviy konki uchish, madaniy tadbirlar, festivallar muntazam o'tkazib kelinmoqda.

2011-yilda bu yerda VII qishki Osiyo o'yinlari, 2017-yilda Butunjahon Universiada musobaqalari o'tkazilgan.

Tanishuv chog'ida O'zbekiston va Qozog'iston Prezidentlari yosh figurali uchuvchilarning ko'rgazmali chiqishlarini tomosha qildilar.

Shundan so'ng O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev Olmaota shahrida norasmiy uchrashuv o'tkazdilar.

Ikki mamlakat delegatsiyalari ishtirokida O'zbekiston — Qozog'iston yaxshi qo'shnihlilik, strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini izchil mustahkamlash masalalari atrofida ko'rib chiqildi.

Suhbat avvalida davlat rahbarlari bir-birini hamda qardosh xalqlarimizni bahor ayyomi Navro'z va yaqinlashib kelayotgan Ramazon hayiti bilan samimiy qutladilar.

O'zbekiston bilan Qozog'iston o'rtasidagi ko'p qirrali hamkorlik yuksak darajaga ko'tarilgani alohida mamnuhiyat bilan qayd etildi. Barcha

darajalarda faol muloqotlar olib borilmoqda. Tovar ayirboshlash hajmi yil boshidan buyon 14 foizga oshdi, umumiy qiymati 4 milliard dollardan ziyod investitsiya loyihalari portfeli shakllantirildi, yaqin hududlararo aloqalar va madaniy-gumanitar almashinuv rivojlanmoqda.

Davlat rahbarlari O'zbekiston va Qozog'iston Bosh vazirlari o'rinbosarlarining o'zaro savdoni ko'paytirish, mashinasozlik, elektrotexnika, neft-gaz, to'qimachilik, qishloq xo'jaligi va boshqa ustuvor tarmoqlarda yetakchi korxonalarining kooperatsiya loyihalarini ilgari surish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar to'g'risidagi hisobotlarini tingladilar.

Prezidentlar sanoat kooperatsiyasi bo'yicha uzoq muddatli dasturni shakllantirish, mintaqaviy ahamiyatga ega infratuzilmaviy loyihalarni jadallashtirish yuzasidan aniq topshiriqlar berdilar.

Joriy yilda Xalqaro sanoat kooperatsiyasi markazini ishga tushirish bo'yicha amaliy ishlarni boshlash, qo'shma tashqi savdo kompaniyasi faoliyatini kengaytirish muhimligi qayd etildi.

(Davomi 2-betda).

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati surati.

O'ZBEKISTON XALQIGA RAMAZON HAYITI TABRIGI

Qadrlı yurtdoshlar!

Avvalo, siz azizlarni, butun xalqimizni ulug' ayyom — muborak Ramazon hayiti bilan chin yurakdan samimiy tabriklab, barchangizga o'zimizning yuksak hurmatim va ezgu tilaklarimni izhor etaman.

Ushbu saodatli damlarda bu yilgi Ramazon oyini har tomonlama munosib o'tkazib, Iyd al-Fitrni el-yurtimiz bilan birga mana shunday shodur xurramlikda kutib olayotganimiz uchun Yaratganga behisob shukronalar aytamiz.

Albatta, tub mohiyatida insonparvarlik g'oyasi mujassam bo'lgan muqaddas islom dinining ezgu qadriyatlarini bugungi kunda Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarga naqadar uyg'un va hamohang ekani Ramazon oyida yanada yaqqol namoyon bo'ldi, desak, ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz.

Bu haqda so'z yuritganda, avvalo, ma'naviy poklanish, sabr-qanoat, shukronalik, xayru saxovat fazilatlarini ulug'lanadigan ushbu oyni milliy an'ana va qadriyatlarimizga mos tarzda, yuksak saviyada o'tkazish, yurtimiz musulmonlari ibodat

amallarini emin-erkin ado etishlari uchun barcha sharoitlar yaratilganini ta'kidlash lozim.

Ayniqsa, bu muborak oyingning «Ramazon — saxovat, birdamlik va bag'rikenglik oyi» degan g'oya asosida o'tkazilgani jamiyatimizda tinchlik, do'stlik, mehr-oqibat va saxovat muhitini yanada mustahkamlashga xizmat qildi.

Shu maqsadda kam ta'minlangan, yordamga muhtoj oilalar, keksa, nogiron va yolg'iz insonlar holidan xabar olish, kambag'al kishilarning og'irini yengil qilish, uyalar va mahallalarni obod etish, uch avlod vakillari ishtirokida ommaviy daraxt ekish, yangi bog'u ro'g'lar barpo etish bo'yicha ko'plab xayriya tadbirlari o'tkazilganini qayd etish zarur. Jumladan, respublikamiz bo'ylab ko'p millatli, ko'p konfessiyali mamlakatimiz jamoatchiligi vakillarini birlashtirgan iftorlik marosimlari bizning kuchimiz birlikda va hamjihatlikda ekanini yana bir bor yaqqol namoyon etdi.

O'ylaymanki, keyingi yillarda yaxshi an'anaga aylangan bunday marosimlar inson qadrini ulug'lash, mehnatkash va

oliyanob xalqimizni yagona, ahil oila sifatida birlashtirish borasida beqiyos ahamiyatga ega bo'lib, biz bu ishlarni bundan buyon ham albatta davom ettiramiz.

Hurmatli do'stlar!

Barchangizga ma'lumki, islom — bu avvalo, odamiylik, ilm-fan, bilim va ma'rif, ezgu fazilatlarini ulug'lash ta'limotidir.

Shu borada mamlakatimizda islom sivilizatsiyasi va madaniyati asosida yaratilgan boy ilmiy-ma'naviy merosni to'plash, o'rganish va keng targ'ib etishga so'nggi yillarda ulkan e'tibor berilmoqda. Ayni shu maqsadda yurtimizda yangi-yangi ilmiy-ma'rifiy markazlar, diniy yo'nalishdagi ta'lim maskanlari, qutlug' ziyoratgohlar barpo etilib, samarali faoliyat olib bormoqda.

Hech shubhasiz, bularning barchasi go'zal diyorimizda barcha soha va tarmoqlar qatori diniy-ma'rifiy hayot ham uzluksiz rivojlanishda ekanidan dalolatdir. Bu ishlarda yurtimiz mo'min-musulmonlari, butun xalqimizning munosib hisssasi borligini ta'kidlab, buning

uchun barchangizga samimiy minnatdorlik bildiraman.

Mana shu shukuhli ayyomda chet ellarda ona yurtga sadoqat tuyg'usi bilan yashayotgan vatandoshlarimizni ham Ramazon hayiti bilan chin didan qutlab, ularga ezgu tilaklarimizni izhor etamiz.

Ushbu sharofatli kunda dunyoning uzoq-yaqin o'lkalardagi musulmon ummatini ham qizg'in tabriklab, ularning xalqlari va mamlakatlari do'stlik salomimizni yo'llaymiz.

Aziz va muhtaram vatandoshlar! Siz, azizlarni Ramazon hayiti bilan yana bir bor chin qalbidan muborakkob etib, barchangizga mustahkam sog'liq, baxtu saodat, xonadonlaringizga fayzu baraka tilayman.

Ramazon oyida qilgan barcha ezgu niyat va duolarimiz ijobat bo'lsin!

Allohu ta'lo jonajon Vatanimiz va xalqimizni o'z panohida asrasin!

Iyd al-Fitr ayyomi barchamizga muborak bo'lsin!

Shavkat MIRZIYOYEV,
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

SAMIMIY QUTLOVLAR

Mo'min-musulmonlar uchun muqaddas bo'lgan, ruhiy poklanish, mehr-oqibatli bo'lish, muhtojlarga ko'mak va g'amxo'rlik ko'rsatishga undovchi Ramazon oyi va muborak Ramazon hayiti munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev nomiga xorijiy davlatlar va hukumatlar, nufuzli xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar rahbarlari, taniqli din va jamoat arboblardan qutlovlar kelmoqda.

Xorijiy hamkorlar O'zbekiston va uning ko'p millatli xalqiga tinchlik, farovonlik va ravnaq tilab, mamlakatimiz bilan do'stlik munosabatlarini yanada mustahkamlash va o'zaro manfaatli hamkorlikni kengaytirishga intilishini tasdiqlamoqda.

Quyidagilar o'z tabriklarini yo'llagan:

Saudiya Arabistoni Podshohi **Salmon bin Abdulaziz Ol Saud;**

Saudiya Arabistoni Valiahdi, Vazirlar Mahkamasi Raisi **Muhammad bin Salmon bin Abdulaziz Ol Saud;**

Turkiya Respublikasi Prezidenti **Rejep Tayyip Erdog'an;**

Qozog'iston Respublikasi Prezidenti **Qosim-Jomart Toqayev;**

Qirg'iz Respublikasi Prezidenti **Sadur Japarov;**

Tojikiston Respublikasi Prezidenti **Emomali Rahmon;**

Turkmaniston Prezidenti **Serdar Berdimuhamedov;**

Turkman xalqining milliy yetakchisi, Turkmaniston Xalq Maslahati Raisi **Gurbangul Berdimuhamedov;**

Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti **Ilhom Aliyev;**

Birlashgan Arab Amirliklari Prezidenti **Shayx Muhammad bin Zoid Ol Nahayon;**

Birlashgan Arab Amirliklari Vitse-prezidenti, Bosh vaziri, Dubay amirligi hokimi **Shayx Muhammad bin Roshid Ol Maktum;**

Birlashgan Arab Amirliklari Vitse-prezidenti **Shayx Mansur bin Zoid Ol Nahayon;**

Birlashgan Arab Amirliklari Bosh vaziri o'rinbosari **Shayx Sayf bin Zoid Ol Nahayon;**

Misir Arab Respublikasi Prezidenti **Abdulfattoh as-Sisi;**

Eron Islom Respublikasi Prezidenti **Mas'ud Pezeshkian;**

Pokiston Islom Respublikasi Bosh vaziri **Shahboz Sharif;**

Qatar Davlati Amiri **Shayx Tamim bin Hamad Ol Soniy;**

Qatar Davlati Amirining o'rinbosari **Shayx Abdulloh bin Hamad Ol Soniy;**

Kuvayt Davlati Amiri **Shayx Mish'al al-Ahmad al-Jobir as-Saboh;**

Kuvayt Davlati Valiahdi **Shayx Saboh Xolid al-Ahmad as-Saboh;**

Jordaniya Hoshimiyalar Podshohligi Podshohi **Abdulla II;**

O'mon Sultoni **Haysam bin Toriq Ol Said;**

Bahrayn Podshohi **Shayx Hamad bin Iso Al Xalifa;**

Marokash Qiroli **Muhammad VI;**

Jazoir Xalq Demokratik Respublikasi Prezidenti **Abdulmajid Tabbun;**

Tunis Respublikasi Prezidenti **Qays Said;**

Falastin Davlati Prezidenti **Mahmud Abbas;**

Liviya Davlati Prezidenti kengashi rahbari **Muhammad Yunus Al-Manfi;**

Somali Federativ Respublikasi Prezidenti **Hasan Shayx Muhammad;**

Isroil Davlati Prezidenti **Isxak Gersog;**

Islom hamkorlik tashkiloti bosh kotibi **Husayn Ibrohim Toha;**

Ko'rfaz arab davlatlari hamkorlik kengashi bosh kotibi **Ja'sim Muhammad Al-Budayviy;**

Turkiy davlatlar tashkiloti bosh kotibi **Kubanichbek Omuraliyev;**

Turkiy davlatlar tashkiloti Oqsoqollar kengashi raisi **Binali Yildirim;**

Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti bosh kotibi **Faridun Sinirli o'g'li;**

Islom taraqqiyot banki raisi **Muhammad Sulaymon Al-Jasir;**

«Al-Azhar» majmuasi shayxi **Ahmad Tayyib;**

Kavkaz musulmonlari idorasi raisi **Shayxulislam OIloshukur Poshshozoda.**

Tabriklar kelishda davom etmoqda.

MARKAZIY OSIYO MUVOZANATI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning mintaqada mutlaqo yangi siyosiy muhit yaratish borasidagi tarixiy xizmatlari haqida

Tarixni shaxslar yaratadi, asriy muammolarga barham beradi, muvozanat hosil qiladi, barqarorlikka erishadi. O'zaro hamjihatlik va hurmat muhitini shakllantiradi. Oqilona murosaga kelish yo'llarini izlaydi. Do'stona qadarni birinchi bo'lib tashlaydi. O'rtadagi ziddiyatlarni, kelishmovchiliklarni, sovuqchiliklarni oradan ko'taradi. Ishonch beradi, ishonch uyg'otadi. Birodar, qondosh, qarindosh ekanliklarini eslatadi. Tilimiz, dinimiz, qalbimiz, qismatimiz bir bo'lganini, biz birgalikda kuchga aylanishimizni anglatadi, anglatadi...

Nuqtai nazar

Markaziy Osiyo mintaqasining muammolari bundan 100-yil oldin xalqlarimizni mustamlaka

qilganlar tomonidan sun'iy ravishda, qasddan paydo qilinganini, belgilanganini inobatga oladigan bo'lsak,

ahvol biz o'ylaganimizdan jiddiyroqligini, muammo juda chuqur ildiz otganini ko'ramiz.

XX asrning 1922-yilida tuzilgan «zulm saltanati» — sobiq ittifoq o'z manfaatlarini hisobga olib, o'zaro nizo keltirib chiqarish, yer-suv talashishlarni mo'ljallab, 1924-yilda Turkmaniston, 1925-yilda O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, 1929-yilda Tojikiston Respublikalari o'rtasidagi chegaralarni qonli qizil chiziq bilan belgiladi.

1991-yilda Markaziy Osiyo respublikalari mustaqillik e'lon qildi. Biroq mustaqillikka

erishgandan 25 yil o'tib — 2016-yilda O'zbekiston davlati boshqaruviga Prezident Shavkat Mirziyoyev kelganidan so'ng Markaziy Osiyoda mutlaqo yangi siyosiy muhit shakllandi. Davlat chegaralari borasidagi umuman boshi berk ko'chaga kirib qolgan mutlaqo yangi siyosiy muhit, «Yagona tarix va umumiy kelajak», «Barqaror rivojlanish va taraqqiyot», «Yaqin qo'shnihlilik va strategik sheriklik» kabi Prezident Shavkat Mirziyoyevga tegishli bo'lgan iboralar qo'llanila boshladi.

Markaziy Osiyoning bir asrlik muammosiga yechim topish Prezident Shavkat Mirziyoyevning chekiga tushgan edi. U ulkan aysbergni o'midan siljitti. O'zbekiston rahbari Shavkat Mirziyoyevning siyosiy irodasi bilan Markaziy

Osiyoda maslahatlashuvdan maqsadga, muammolaning muvaffaqiyatga, tahlikadan taraqqiyotga yo'naltirilgan yangi tamoyil yaratildi. Xalqaro doiralarda «Siyosiy ishonch darajasi sezilarli darajada oshdi», «Mintaqada mutlaqo yangi siyosiy muhit», «Yagona tarix va umumiy kelajak», «Barqaror rivojlanish va taraqqiyot», «Yaqin qo'shnihlilik va strategik sheriklik» kabi Prezident Shavkat Mirziyoyevga tegishli bo'lgan iboralar qo'llanila boshladi.

O'ZBEKISTON VA QOZOG'ISTON MUNOSABATLARI UMUMIY DO'STLIK VA YAXSHI QO'SHNICHILIK TAMOYILLARI ASOSIDA IZCHIL RIVOJLANMOQDA

(Davomi. Boshlanishi 1-betda).

Mintaqaviy kun tartibi, shu jumladan, yaqin oylarda O'zbekistonda o'tkaziladigan Markaziy Osiyo sammitlariga tayyorgarlik yuzasidan fikr almashildi.

Bo'lajak ikki va ko'p tomonlama tadbirlar rejasini ham ko'rib chiqildi. Uchrashuv har doimgidek do'stona va ishonchli ruhda o'tdi.

So'ng O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev bilan birgalikda «AlmatyFair.ai» raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt ko'rgazmasiga tashrif buyurdilar.

Davlat rahbarlariga mazkur sohalardagi ilg'or yechimlar va innovatsion ishlanmalar haqida axborot berildi.

Qozog'iston Prezidenti tashabbusi bilan tashkil etilayotgan «Alem.ai» sun'iy intellekt markazining taqdimoti bo'lib o'tdi.

«Alem.ai» – sun'iy intellekt sohasida mutaxassislar o'qitish, startaplarni ishga tushirish va ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish uchun platforma.

Yetakchilar Markaziy Osiyodagi eng yirik texnoparklar birlashmasi – «Central Asian Innovation Hubs» («Astana Hub» va «IT Park Uzbekistan») faoliyati bilan ham tanishdilar.

Prezidentlar raqamlashtirish sohasidagi o'zaro manfaatli

hamkorlikni kengaytirish, qo'shma IT mahsulotlarini yaratish, sun'iy intellekt va ilg'or axborot texnologiyalari sohasidagi milliy strategiyalarni o'zaro bog'lash muhimligini ta'kidladilar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Olmaota shahriga tashrifning madaniy dasturi doirasida Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev bilan birgalikda Abilxon Kasteev nomidagi Milliy san'at muzeyiga tashrif buyurdi.

Xalq rassomlari – qozoq tasviriy san'ati asoschisi Abilxon Kasteev va o'zbek rangtasvir ustasi O'rol Tansiqboev asarlari tomosha qilindi.

Ko'rgazma O'zbekiston va Qozog'iston boy badiiy merosining yorqin ifodasi, ikki qardosh xalq o'rtasidagi mustahkam madaniy aloqalarning ramzi bo'ldi.

Davlat rahbarlari san'at sohasidagi hamkorlikni yanada kengaytirish, shu jumladan, qo'shma tadbirlar o'tkazish, madaniy muloqotni rivojlantirishga xizmat qiladigan tashabbuslarni ko'lab-quvvatlash muhimligini ta'kidladilar.

Shu bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qozog'iston Respublikasiga amaliy tashrifi yakunlandi.

Olmaota xalqaro aeroportida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevni Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev kutub qo'ydi.

O'ZA.

Uchrashuv

HAMKORLIK ALOQALARI MUSTAHKAMLANADI

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Spikeri Nuriddin Ismoilovning Vengriya Davlat audit idorasi raisi Laslo Vindish boshchiligidagi delegatsiya bilan uchrashuvi bo'lib o'tdi.

Muloqot davomida mehmonga «O'zbekiston – 2030» strategiyasi doirasida amalga oshirilgan islohotlar, Qonunchilik palatasining qonun ijodkorligi yo'nalishidagi faoliyati, qo'mitalar, komissiyalar hamda deputatlarining asosiy vazifalari haqida batafsil ma'lumot berildi.

Vengriya delegatsiyasi rahbari samimiy qabul uchun minnatdorlik bildirgan ekan, idoralardan hamkorlik davlatlar o'rtasidagi iliq munosabatlarga sezilarli turtki bo'luvchi omilligini ta'kidladilar.

Mehmonning fikriga ko'ra, Vengriya Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan hamkorlikni faollashtirishdan manfaatdor bo'lib, xususan, O'zbekiston bilan aloqalarni yanada mustahkamlashga jiddiy e'tibor qaratadi va faol hamkorlikka tayyor.

«O'zbekiston va Vengriya o'rtasida iqtisodiy va savdo sohasida hamkorlikni yuqori pog'onaga olib chiqishga barcha sharoit mavjud. Mamlakatingiz bozorida 10 ga yaqin Vengriya korxonalarida faoliyat yuritmoqda va kelgusida bu son oshishiga umid qilamiz. Xususan, farmatsevtika va qishloq xo'jaligi sohasida hamkorlikni faollashtirish mumkin, deb o'ylayman», dedi delegatsiya rahbari.

Shu bilan birga, L. Vindish Vengriya davlat audit idorasi va O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi o'rtasida hamkorlik bo'yicha kelishuv imzolanganida hamda mazkur tashrif doirasida chora-tadbirlar rejasini imzolashida rejalashtirilganini ta'kidladilar.

Uchrashuv do'stona va konstruktiv ruhda o'tdi.

QONUN IJODKORLIGI SOHASIDA TAJIRBA ALMASHINADI

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Spikeri Nuriddin Ismoilovning Xitoy Kommunistik partiyasi Markaziy qo'mitasi xalqaro bo'limi mudiri Lyu Szyanchao boshchiligidagi delegatsiya a'zolari bilan uchrashuvi bo'lib o'tdi.

Muloqotda keyingi yillarda O'zbekiston va Xitoy o'rtasida ikki tomonlama aloqalarning barcha yo'nalishida o'zaro munosabatlarni faollashtirish, ko'p tomonlama muloqotlar mustahkamlanib borayotgani, mamlakatlarning mintaqaviy va xalqaro masalalar yuzasidan bir-birini qo'llab-quvvatlayotgani alohida e'tirof etildi. Ayniqsa, ikki davlat rahbarlari Shavkat Mirziyoyev va Si Zsinpinning qat'iy siyosiy irodasi, oliy darajadagi uchrashuvlar tufayli O'zbekiston – Xitoy hamkorlik munosabatlari keng o'lchamli ahmiyat kasb etib, strategik sheriklik darajasiga ko'tarildi, turli sohalardagi munosabatlarni yanada bosqichga chiqdi.

Uchrashuvda delegatsiya a'zolari mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng o'lchamli islohotlar, yangi tahrirdagi Konstitutsiya normalarini ro'yobga chiqarish borasidagi sa'y-harakatlar hamda Qonunchilik palatasi faoliyatining asosiy yo'nalishlari haqida batafsil ma'lumot berildi.

O'z navbatida, Lyu Szyanchao ikki davlat rahbarlarining oliy darajadagi ishonchli muloqotlari va keng o'lchamli aloqalari O'zbekiston – Xitoy munosabatlarining butun spektrini rivojlantirishga turtki bo'layotganini

ta'kidlab, Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan barcha sohada amalga oshirilayotgan jadal islohotlar ulkan natijalar berayotganini yuqori baholadi. O'zbekiston iqtisodiyotining barqaror o'sayotgani, salohiyatli investori hamda keng e'tibori mamlakatda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar juda puxta o'ylanganidan dalolat ekani alohida qayd etildi.

Konstruktiv ruhda o'tgan uchrashuvda parlamentlararo aloqalarni rivojlantirish, qonun ijodkorligi sohasida o'zaro tajriba almashish, ikki tomonlama munosabatlarni dinamikasini boyitishga qaratilgan aniq yo'nalish va takliflarni ishlab chiqish maqsadida «aqi markazlari» o'rtasida hamkorlikni yo'lga qo'yish masalalari ham muhokama qilindi.

Muloqot chog'ida sanoat hududlarini yaratish, qishloq xo'jaligini rivojlantirish, korrupsiyaga qarshi kurashish, raqamlashtirish sohasida aloqalarni yanada bosqichga olib chiqish bo'yicha so'z yuritildi.

Samimiy va do'stona ruhda o'tgan uchrashuvda tomonlar hamkorlik aloqalarini yangi bosqichga olib chiqishga kelishib oldi.

“Xalq so'zi”.

MARKAZIY OSIYO MUVOZANATI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning mintaqada mutlaqo yangi siyosiy muhit yaratish borasidagi tarixiy xizmatlari haqida



Markaziy Osiyo mamlakatlarida chorak asr davomida ishonchsizlik hukm surdi, dushmanlik kayfiyati singdirildi, axborot xurujini avj oldi. Shunday siyosiy muhit yuzaga kelgan ediki, uni yaxshilik sari o'zgartirishni tasavvur etish qiyin edi.

Transchegaraviy daryolar, janjalli hududlar, yer-suv va havo masalalarida tomonlar bir-birini ayblashdan narigina o'tmasdi. Chegaralardagi o'tkazish punktlari yopilgan, tog'-toshlar minalashtirilgan edi. Hech bir sohada bordi-keldi yo'q, barcha aloqalardan, qadriyatlar, til, tarix, din birligidan ko'z yumilgandi. Ayniqsa, O'zbekiston – Qirg'iziston, O'zbekiston – Tojikiston munosabatlari achinarli, tahlikali, tashvishli edi.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning oqilona siyosati va qat'iy siyosiy irodasi tufayli vaziyat o'nglandi. Prezident Shavkat Mirziyoyev nomi Markaziy Osiyoning yangi tarixini yaratuvchi shaxs sifatida xalqlarimiz qalbiga muhrlandi. Markaziy Osiyoning yangi tarixi 2016-yildan boshlanganligini va bu jarayonda Shavkat Mirziyoyev hal qiluvchi o'rin tutganini unutmishga haqqimiz yo'q.

Yuz yillik adovatga tarix uchun juda qisqa bo'lgan bir necha yil ichida chora topildi. Markaziy Osiyo osmonini qoplab olgan qora bulutlar tarqaldi. Ayniqsa, xalqlarimizning xursandligini aytmasizmi? Unutmayotgan an'analar tiklandi. Bordi-keldirlar iza tushdi. Et bilan timoqni ajratib bo'lmas ekan. Bu haqiqatni yana bir bor chuqur anglab yetdik...

Prezident Shavkat Mirziyoyev Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining yig'ilishlarida bu haqda xalqaro hamjamiyatga qaratib shunday degan edi: «O'zbekiston bugungi kunda o'zining tashqi siyosatida Markaziy Osiyo mintaqasiga ustuvor ahmiyat qaratmoqda. Bu – har tomonlama chuqur o'yab tanlangan yo'ldir».

Ha, bu ortga qaytib bo'lmas yo'ldir. Biz yo'qotib qo'yg'an, uzoq sarson-sargardon bo'lgan yo'ldir. Ko'r hassasini bir marta yo'qotadi. Biz ko'p vaqt yo'qotdik va buning badalini ortig'i bilan to'ladik.

Mamlakatimiz tashqi siyosatida Markaziy Osiyo qay darajada muhim o'rin tutishini davlatimiz rahbarining turli minbarlarda turib bildirgan fikrlari ham yaqqol ko'rsatib beradi.

“Tinch-osoyisha, iqtisodiy jihatdan taraqqiyot uchun Markaziy Osiyo – biz intiladigan eng muhim maqsad va asosiy vazifadir. O'zbekiston o'zaro muloqot, amaliy hamkorlik va yaxshi qo'shnichilikni mustahkamlashning qat'iy tarafdoridir”. Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan mazkur g'oyalarni naqadar to'g'ri va adolatli ekanini butun dunyo e'tirof etmoqda, tan olmoqda. Markaziy Osiyoda dushmanchilik, kelishmovchiliklar o'rni allaqachon o'zaro hamjihatlik egallagan.

«O'zbekiston – Qirg'iziston davlat chegaralari to'g'risidagi shartnoma imzolashni tom ma'noda muhim voqea bo'ldi... O'tgan yigirma olti yil davomida birinchi marta ushbu g'oyat nozik masala bo'yicha katta natijaga erishildi».

O'zbekiston – Qirg'iziston chegaralaridagi vaziyatni yechish, hatto bu haqda o'yab ko'rish ham o'ta og'riqli edi. Muammoning bartaraf etilishini o'zbek diplomatiyasining XXI asrdagi eng katta yutuqlaridan biri sifatida qayd etsa bo'ladi. Ungacha bu chegaralarga necha marta harbiy texnikalar keltirilib, urush holati yuzaga kelgan edi.



Rustam XOLMURODOV, Samarqand davlat universiteti rektori, O'zbekiston Respublikasi fan arbobi, Oliy Majlis Senati a'zosi.

Yuqorida aytilganidek, 26 yilda muzokaralar stoli atrofiga ko'p marta o'tirilishiga qaramasdan aytilar biror natijaga erishib bo'lmagandi.

“Markaziy Osiyoning dunyoga ochiqligi – mintaqa xavfsizligi va barqaror rivojlanishini ta'minlaydigan eng muhim shartga aylanoqda... Xalqlarimizni

“Markaziy Osiyoning bir asrlig muammosiga yechim topish Prezident Shavkat Mirziyoyevning chekiga tushgan edi. U ulkan aysbergni o'rnidan siljitdi. O'zbekiston rahbari Shavkat Mirziyoyevning siyosiy irodasi bilan Markaziy Osiyoda maslahatlashuvdan maqsadga, muammodan muvaffaqiyatga, tahlikadan taraqqiyotga yo'naltirilgan yangi tamoyil yaratildi. Xalqaro doiralarda “Siyosiy ishonch darajasi sezilarli darajada oshdi”, “Mintaqada mutlaqo yangi siyosiy muhit”, “Yagona tarix va umumiy kelajak”, “Barqaror rivojlanish va taraqqiyot”, “Yaqin qo'shnichilik va strategik sheriklik” kabi Prezident Shavkat Mirziyoyevga tegishli bo'lgan iboralar qo'llanila boshladi.”

mintaqaviy o'ziga xoslikni anglash tuyg'usi birlashtirmoqda va bu tuyg'u tobora kuchayib bormoqda. Bizning nafaqat tariximiz, balki kelajagimiz, hayotiy muhim manfaatlarimiz ham umumiy va mushtarakdir”. Vaholanki, 2016-yilgacha Markaziy Osiyo haqida so'z borsa: ular bir-biri bilan kelisholmaydi, urushga tayyorgarlik ko'rishyapti, degan tushunchalar hukmron edi. Bu, avvalo, Markaziy Osiyo mamlakatlarining umumiy dushmanlariga qo'l kelardi. Ular bizni bir-birimizdan ehtiyot bo'lishga, qurollanishga da'vat etardi. Ularning xavotiri, qo'ruvi – Markaziy Osiyoning birlashuvi, yakdilligi edi. Ular asrlar davomida bunga yo'l qo'yishmagan. Vaqti-vaqti bilan fitna qo'zg'ashgan.

“Markaziy Osiyo birdamlik yo'lidan borishda davom etadi. Markaziy Osiyoni tinch va gullab-yashnayotgan hududga aylantirish O'zbekiston tashqi siyosatida bundan buyon ham ustuvor maqsad bo'lib qoladi”.

Prezidentimizning yuqorida biz keltirgan fikrlari jahonning eng yuksak, nufuzli minbarlaridan aytilganini, butun dunyoga bildirilganini hisobga oladigan bo'lsak, O'zbekiston tomoni mazkur g'oyaga sodiq ekanini anglaymiz. Nafaqat sodiqimiz, balki

ushbu g'oyani yanada mustahkamlash yo'lida kurashamiz, intilamiz.

Markaziy Osiyo mintaqasidagi tinchlik va taraqqiyot, hamjihatlik, ahilik, yaxshi qo'shnichilik munosabatlari kimlargadir yoqmasligi, kimlarningdir manfaatlariga zid ekani ham inkor qilib bo'lmaydigan haqiqat. Buni biz Markaziy Osiyoda yuz bergan bir nechta salbiy voqealar misolida ham ko'rdik.

2021-yil 29-aprel kuni Qirg'iziston – Tojikiston chegarasida sodir bo'lgan qurolli to'qnashuvni afsus va nadomat bilan eslaymiz. Bu voqea Markaziy Osiyo mintaqasidagi tinchlikni ko'ra olmaydigan kuchlar uchun ayni muddao edi. Qardoshlarimiz boshiga tushgan og'ir, sinovli kunlarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ularga birinchi bo'lib do'stona qo'l uzatdi. Qirg'iziston Prezidenti Sadiq Japarov va Tojikiston Prezidenti Imomali Rahmonni murosaga chaqirdi. Muammoni diplomatik yo'l bilan hal etish g'oyasini ilgari surdi.

Tahlikali va musibatli kunlarda tomoshabin bo'lganlarni ham ko'rdik. Har ikki tomonda, xorijdagi ayrim buz'unchi kuchlarning urush olovini yoqishga va vaziyatni butunlay izdan

Markaziy Osiyoda O'zbekiston rahbari Shavkat Mirziyoyevning bag'rikenglik, insonparvarlik va o'zaro mehrga, hurmatga asoslangan samimiy diplomatiyasi g'alaba qozonganini baralla ayta olamiz.

Jahon iqtisodiyotida isbot talab qilmaydigan, hech qachon o'zgarayotgan qonuniyatlar bor. Bu, avvalo, masofaning yaqinligi, xarajatlarning kamayishi, bir-birini tarjimonisiz tushunish kabildir. Ushbu omillar davlatlar o'rtasidagi munosabatlarni yanada yaqinlashtirishga xizmat qiladi.

Ishonchimiz komilki, bir kun kelib Markaziy Osiyo respublikalari mutaxassislari 25 yil davom etgan sovuq munosabatlarni davlatlarimiz iqtisodiyotiga qanchalik zarar yetkazganini hisob-kitob qiladi. Bu masalaning faqat iqtisodiy tomoni, uning ma'naviy zarari, xalqlarimiz qalbiga yetkazgan jarohatini esa, ming afsuski, hisoblab bo'lmaydi.

Jahon tarixida urushlarni kimlar keltirib chiqargani, nizolarga nima sabab bo'lgani o'rganilgan, tahlil qilingan, xulosalar chiqarilgan. Qonli urushlarni to'xtatganlar, janjallarni bartaraf etganlar va har ikki tomonni murosaga keltirganlar nomi ham tarix sahifalarida qayd etilgan.

Dunyodagi eng nufuzli Nobel mukofoti 1906-yilda prezident ichida birinchi bo'lib Amerika Qo'shma Shtatlari tarixida eng yosh davlat rahbari bo'lgan Teodor Ruzveltga “Yaponiya va Rossiya o'rtasida olib borilgan urushni tugatishdagi o'rni uchun” berilgan.

1973 – 1977-yillar davomida AQSH Davlat kotibi lavozimida faoliyat ko'rsatgan, jahonga mashhur siyosatchi Genri Kissinjer “1973-yilda Vyetnamda o't o'chishni to'xtatish bo'yicha birgalikda muzokaralar olib borilgan uchun” bu mukofotni qo'lga kiritgan.

AQSHning 44-Prezidenti Barak Obama ham 2009-yilda “Xalqaro diplomatiya va xalqlar o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlashdagi sa'y-harakatlari uchun” Nobel mukofotiga sazovor bo'lgan edi.

Bu, o'z navbatida, shaxslarning tarix oldidagi xizmatlarini munosib e'tirof etish belgisi hamdir. Tarixdan to'g'ri xulosa chiqarish kelajak uchun muhim ahmiyatga ega ekanini unutmashlik kerak.

Shu yo' oxirida Tojikistonning Xo'jand shahrida O'zbekiston, Qirg'iziston, Tojikiston liderlari ishtirokida tarixda ilk bor uch tomonlama sammit bo'lib o'tadi. Siyosatchilarning tahliliga ko'ra Xo'jand uchrashuvi uch tomonlama o'rtasidagi mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlashda muhim qadam bo'ladi. Yetakchilar Markaziy Osiyoda xavfsizlik, barqarorlik va farovonlikni ta'minlashga qaratilgan hamkorlikning asosiy masalalarini atroficha muhokama qilishi kutilmoqda.

Markaziy Osiyo mas'uliyati va unda O'zbekiston tomonining o'rni tobora mustahkamlanib, barqarorlashib borayotgani isbot talab etmaydigan haqiqat. Mintaqadagi bugungi yangi O'zbekistonning maqsadi gegemonlik emas, balki ochiqlik, birgalikda taraqqiyotga erishish, qo'llab-quvvatlash, hamkorlikda rivojlanish, bir butun Markaziy Osiyo g'oyasiga sodiq qolishdir.

Mening nazrimda bu haqiqatni biz, Markaziy Osiyoliklar uzoq izladik. Bu yo'lida qanchadana qancha imkoniyatlarni boy berdik. Ajdodlarimiz mana shu kunlarni ko'rishga zor bo'ldi. Endi uni asrash kerak, ehtiyot qilish zarur.

Insonparvarlik tamoyilining amaliy ifodasi

Yurt ravnaqi, jamiyat taraqqiyoti inson qadrini ulug'lash, uning haq-huquqlarini himoya qilishdan boshlanadi. O'zbekiston bugun dunyo hamjamiyatiga “Inson qadri uchun!” degan bosh g'oya asosida aynan mazkur tamoyillarni ilgari surgan holda rivojlanayotgan davlat sifatida tanilmoqda.

Aks sado

Mamlakatimiz yuksalishi yo'lida olib borayotgan birdamlikdagi sa'y-harakatimiz, turli sohalar rivojida qo'lga kiritilayotgan, e'tirof etishga arzigulik muvaffaqiyat va natijalarimiz ham, eng avvalo, mazkur jihatga asoslanishi bilan e'tiborga molik, albatta.

Shu nuqtayi nazardan, muborak Ramazon o'yingin fayzli va shukuhli kunlarida davlatimiz rahbari tomonidan “Jazo muddatini o'tayotgan, qilmishiga chin ko'ngildan pushaymon bo'lgan va tuzalish yo'lga qat'iy o'tgan bir guruh shaxslarni afv etish to'g'risida”gi Farmonning imzolashini keng jamoatchilik xursandchilik bilan kutib oldi.

Keyingi yillarda yurtimizda afv instituti mexanizmi insonparvarlik va adolat



mezonlariga hamohang tarzda shakllandi hamda jazo muddatini o'tayotgan, qilmishidan chin dildan pushaymon bo'lgan va tuzalish yo'lga qat'iy o'tgan shaxslarga yangi hayotga qaytish imkoniyatini taqdim etmoqda. Ahmiyatli, ushbu xayrli an'ana nafaqat ular uchun, balki jamiyat uchun ham o'ziga xos tarbiyaviy ahmiyatga ega. Boisi afv adolat mezonlarini ta'minlab, jamiyatimizda odillik va bag'rikenglik muhitini mustahkamlashga xizmat qiladi. Farmon bilan jazo muddatini o'tayotgan

hamda qilmishiga chin ko'ngildan pushaymon bo'lgan va tuzalish yo'lga qat'iy o'tgan 488 nafar shaxs afv etildi (o'tgan yili bu ko'rsatkich 426 nafar edi). Jumladan, ularning 100 nafari asosiy jazodan to'liq ozod etildi, 268 nafari jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilindi, 34 nafarining ozodlikdan mahrum etish jazosi yengilroq jazo bilan almashtirildi. Shuningdek, 86 nafar shaxsga tayinlangan ozodlikdan mahrum etish jazosining muddatlari qisqartirildi.

Bu raqamlar ortida bir necha yuzlab insonlar taqdiri o'zgarishi, ularni oilalari katta umid va intizorlik bilan kutayotganini inobatga olsak, jinoyatga beriladigan jazo ijro tizimi faqat muqarrar jazolash emas, balki insonni to'g'ri yo'lga qaytarish, uning ijtimoiy reabilitatsiyasini ta'minlashga ham qaratilganini anglaymiz. Bugun ozodlikka chiqayotgan shaxslarning katta qismi Ramazon hayitini o'z uyida kutib oladi.

Afv etilganlarning taqdirini o'zgartirib, jamiyat, fuqarolar uchun foydasi tegadigan shaxslarga aylanishiga debocha bo'lgan

ushbu voqelikdan so'ng ota-onalar farzandlari bilan qaytadan uchrashmoqda, bolalar esa otasi yoki onasi ko'ksiga bosh qo'ymoqda. Bu, o'z navbatida, kechirimlilik – jamiyatni birlashtiruvchi, uni kuchli va bag'rikeng qiladigan yuksak fazilat ekanini anglatadi.

“Xatolar insonni tarbiyalaydi”, deyishadi. Ammo ba'zan bu dars bag'oyat og'ir kechadi. Birgina kichik xato ham insonning hayotini o'zgartirishi, uni oilasidan, erkidan, jamiyatdagi o'rnidan ayirishi mumkin. Biroq ayrim xatolar borki, ular faqat jazo bilan emas, to'g'ri yo'lga qaytish imkoniyati bilan ham qabul qilinishi kerak.

Biz insonparvar va adolatparvar jamiyat barpo etish yo'lida afv institutining ahmiyatini yuksak baholaymiz. Chunki adolat faqat jazo bilan emas, balki tarbiya, inson qadrini ulug'lash va jamiyatga qaytarish yo'li bilan ham ta'minlanadi.

Robaxon MAHMUDOVA, Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi “Adolat” SDP fraksiyasi rahbari.

Faxr



Shaxmatchilarimiz — jahon chempioni

Avval xabar berilganidek, Serbiyada shaxmat bo'yicha maktab o'quvchilari o'rtasida o'tkazilgan jahon chempionati yakuniga yetdi.

Biz uchun quvonarlisi shundaki, musobaqaning umumiy natijalariga ko'ra O'zbekiston terma jamoasi uchta oltin, ikkita kumush hamda bronza medallarini ko'ga kiritdi. Xususan, "FIDE World School Chess Championships — 2025" maktab o'quvchilari o'rtasidagi jahon chempionatida 13 yoshgacha qizlar o'rtasida Sarvinoz Begmurotova oltin medalga sazovor bo'ldi. U to'qqiz turda 7,5 ochko to'plab, bahslarda mag'lubiyatga uchradi. Hamyurtimiz ushbu muvaffaqiyati bilan "FIDE Women FIDE Master" (WFM) unvonini ham oldi. Bu yoshdagi o'g'il bolalar orasida Biloliddin Obidov kumush medal sohibiga aylandi. 15 yoshgacha qizlar o'rtasida Nilufar Imomqo'ziyeva Serbiya, Ruminiya, Hindiston, Kuba hamda Gruziyadan kelgan kuchli shaxmatchilarni mag'lub etib, O'zbekiston terma

jamoasi hisobiga ikkinchi oltin medalni taqdim qildi. Shu bilan birga, 9 yoshgacha bo'lgan o'g'il bolalar o'rtasida Nurmuhammad Ne'matullaxonov chempionga aylandi. Ushbu yosh toifasidagi qizlar bahsida esa Madinabonu Asadova uchinchi o'rindan joy egalladi. Bu hali hammasi emas, 7 yoshgacha qizlar o'rtasida Mohinur A'zamxo'jayeva kumush medal bilan taqdirlangan bo'lsa, 17 yosh toifasida Xondamir Elmirezayev shohsupaning uchinchi pog'onasini zabt etdi. Mazkur yutuqlar mamlakatimizda sportga e'tibor, xususan, aql gimnastikasi — shaxmatni rivojlantirish bo'yicha olib borilayotgan keng ko'lami ishlar samaralari, desak, ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz. "Xalq so'zi".

O'ZBEKISTON TASHQI SIYOSATI TAHLILIGA ILMIY YONDASHUV

Mamlakatimiz o'z milliy manfaatlariga asoslangan holda ochiq, o'zaro ishonchga asoslangan, konstruktiv va faol tashqi siyosat olib borish yo'lini tanlagan. Bu ko'p tomonlama tashqi siyosat bugun o'zining progressiv yo'nalishi va tinchlikparvarligi bilan xalqaro maydonda haqli e'tirof hamda olqishga sazovor bo'layotgani, jahon hamjamiyati oldida O'zbekistonning obro'-e'tibori oshib borayotgani ayni haqiqat.

Mutolaa

Keyingi yillarda mamlakatimiz tashqi siyosatida eng ustuvor vazifalar Markaziy Osiyoda yaxshi qo'shnihilik muhitini barpo etish va mintaqaviy xavfsizlikning muhim muammolarini hal qilishga qaratilgan bilan tahsinga loyiq. Davlatimiz rahbari xalqaro hamjamiyat e'tiborini insonparvarlikka, milliy bag'rikenglikka, hamjihatlikka qaratib kelmoqda. Prezidentimizning mintaqani barqaror, xavfsiz va farovon hududga aylantirishga qaratilgan sa'y-harakatlari tufayli dunyo minbarida "Markaziy Osiyo ruhi" degan mutlaqo yangi tushuncha paydo bo'ldi.

Ta'kidlash joizki, Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasidagi ko'rinmas devorlarni yangi o'zbek diplomatiyasi bilan parchalab tashlagan va xalqlar birlashuviga o'zining yuksak hissasini qo'shayotgan Yurtboshimiz jasoratini bugun butun dunyo e'tirof etmoqda.

Davrimizning eng dolzarb va muhim mavzuga bag'ishlangan "Markaziy Osiyo mintaqalarining strategik sherikligida yangi

davr" kitobida ham Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamlil islohotlar nafaqat O'zbekistonning, balki butun Markaziy Osiyo mintaqasi taraqqiyoti va xalqlari hayotiga ko'rsatayotgan ta'siri chuqur tahlil qilingan.

Mualliflar X. Bozorov, M. Yo'ldoshev, B. Shermuhammadov, Yu. Dodoboyev va K. Boymirzayev qalamiga mansub mazkur asar mintaqa davlatlari o'rtasidagi hamkorlikning yangi qirralarini ochib beradi.

Kitobda mualliflar tomonidan davlatimiz rahbari islohotlarining asosiy yo'nalishlari, jumladan, tashqi siyosat va mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish borasidagi sa'y-harakatlari atroficha yoritilgan. Har bir yo'nalish bo'yicha amalga oshirilgan aniq chora-tadbirlar, oshirilgan natijalar va mavjud muammolar xolisona baholangan.

Asarda Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi o'zaro ishonch va hamkorlik muhitini mustahkamlash, savdo-iqtisodiy, transport-logistika, madaniy-gumanitar aloqalarni rivojlantirish

borasidagi tashabbuslar va ularning mintaqa taraqqiyotidagi ahamiyati atroficha yoritilgan. Mualliflar fikricha, O'zbekistonning faol va konstruktiv mintaqaviy siyosati bugungi kunda Markaziy Osiyoda barqarorlik hamda taraqqiyotning muhim omiliga aylanmoqda.

Kitobda keltirilgan tahlillar va xulosalar ishonchli manbalarga, statistik ma'lumotlarga va ekspertlarning fikrlariga asoslangan. Mualliflarning ilmiy yondashuvi, mavzuning to'laqonli tahlili va xolis talqin kitobning qimmatini yanada oshiradi.

Yangi O'zbekistonning strategik rivojlanish konsepsiyasi asoschisi bo'lgan davlatimiz rahbarining islohot va tashabbuslari haqidagi ushbu kitob talabalar, o'qituvchilar, tadqiqotchilar, oliy ta'lim muassasalari, shuningdek, Markaziy Osiyo strategik hamkorligining yangi bosqichi masalalari bilan qiziqqan ilmiy izlanuvchilar uchun muhim ko'lanma bo'lib xizmat qiladi. Zero, Markaziy Osiyo davlatlari strategik sherikligining yangi davri haqida muhim qarashlar, ilmiy tahlillar bayon etilgan ushbu kitobni yangi O'zbekistonning ko'p vektorli tashqi siyosiy faoliyatiga tutilgan ko'zgu, deb ta'riflasak, mubolag'a qilmagan bo'lamiz.

Turg'unoy EGAMBERDIYEVA, Farg'ona davlat universiteti professori, pedagogika fanlari doktori.

YANGILIKLAR xabarlar TAFSILOTLAR

"Toza ichimlik suvi" loyihasi — maktablarda

"Toza ichimlik suvi" loyihasini amalga oshirish doirasida Qoraqalpog'iston Respublikasining Nukus, Beruniy, Qonliko'l, Chimboy, Shumanay, Ellikqal'a tumanlari va Nukus shahridagi yana 26 ta umumta'lim maktabiga zamonaviy suv tozalash tizimlari o'rnatildi.



"Zamin" xalqaro jamoat fondi xabariga ko'ra loyiha boshlanganidan buyon Qoraqalpog'istondagi 232 ta maktab suvdagi zararli aralashmalar, bakteriya va mikroorganizmlarni samarali bartaraf etadigan hamda uni foydali minerallar yordamida boyitadigan uskunalar bilan ta'minlandi.

Natijada 150 mingdan ortiq o'quvchilar sifatli ichimlik suvidan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ldi.

«Tiflo Brayl» — zamonaviy doska

"Nurli maskan" maxsus maktab-internatida ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi o'quvchilar tahsil oladi. Ularga ta'lim boshqalardan farqli ravishda Brayl alifbosidan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ldi.



Buxoro shahridagi maktab-internat o'qituvchisi Sulton Sultonov ko'rishda nuqson bor bolalar uchun ta'lim olishda osonroq, zamonaviy va qulay bo'lgan "Tiflo Brayl" doskasini ixtiro qildi.

Mazkur doskaning o'ziga xosligi shundaki, unda harflar bilan birga raqamlar ustida ham ishlash mumkin. Qahramonimiz doskani yanada ixchamlashtirganidan so'ng u o'qituvchilarning dars jarayonidagi asosiy o'quv quroliga aylandi.

Tog' bag'rida yashiringan ikki tarixiy shahar

Arxeologlar Buyuk Ipak yo'lining muhim chorrahalidan birida avval noma'lum bo'lgan ikkita shaharni aniqlashdi.



O'zbekistonning sharqiy qismidagi ko'kalamzor tog' bag'rida yashiringan ikki shahardan biri — Tugunbuloq kamida 120 gektar maydonni egallagan bo'lib, dengiz sathidan 2 ming metr balandlikda joylashgan.

O'zbekiston Milliy arxeologiya markazidan xabar berishlaricha, qazishma natijalariga ko'ra Tugunbuloq va Toshbuloq VIII — XI asrlarda, ya'ni o'rta asr sivilizatsiyasining avj davrida gullab-yashnagan shahar markazlari bo'lgan. Bu shaharlar Markaziy Osiyoning katta qismida hukmronlik qilgan qadrali turkiy sulola — qoraxoniylar davlati tarkibiga kirgan. Mazkur kashfiyot Buyuk Ipak yo'li va uning savdo yo'llari tarmog'ini haqidagi ko'p yillik tasavvurlarni qayta ko'rib chiqishni talab etmoqda.

Namangandan Ispaniyaga

Namangan viloyatidagi "Barkamol avlod" bolalar maktablarining bir guruh iqtidorli o'quvchilari Ispaniyaning Lyoret-de-Mar shahrida bo'lib o'tadigan xalqaro "Sea Sun Festival" tadbirida qatnashish taklifini olishdi.

Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi xabariga ko'ra mazkur tadbir joriy yilning 30-apreldan 5-may kunigacha qadar bo'lib o'tadi.

Ushbu festivalda 6 nafar o'quvchi 5 ta yo'nalish bo'yicha o'z ijodiy ishlari bilan qatnashib, xalqaro maydonda kuch sinashadi.

Rahim SHERQULOV ("Xalq so'zi") tayyorladi.

KIBR VA ISROF KAMBAG'ALLIK KELTIRADI

Mir Alisher Navoiy "Hayrat ul-abror" asarida shunday yozadi: Sochmoq ovuch birla guhar ot uchun, Naqd etak birla mubohot uchun. Aql hisobidin erur bas yiroq, Buxl bu judungdan erur yaxshiroq. Shoir bunda nom chiqarmoq uchun duru gavharlarni hovuchlab sochmoq aqlidan yiroqlikdir, deya bizni ogohlantiradi. Ya'ni shonu shuhratga, obro'-e'tiborga dabdababoziqlik bilan erishilmaydi. Bir umrlik izzatu e'tiborga to'y bahona isrofgarchilik ila sazovor bo'linmaydi. Manmanlik ila to'kin bir oilani, ya'ni quda tomonni bir umr sindirib, qarzdorlik botqog'iga botirib, qarindoshlik rishtalarini bog'lab bo'lmaydi. Holbuki, birovni qaqshatib, to'y o'tingandan keyin egik boshini ko'rib huzurlanish insofdan emas. Go'daklarning rizqini qirqib, keksalarning umrini qisqartirib, ba'zi birovlarining xurmacha qiliqlari, o'zi "ixtiro" qilgan orzu-havas niqobidagi "obro'"si ila hurmatga loyiq bo'linmaydi.

Mulohaza



Shu o'rinda, kibr tufayli kelib chiqadigan isrofgarchilik turlari haqida gapirmoqchimiz. Masalan, vaqt isrofgarchiligi, demakki, umr va baxt isrofgarchiligi. Rizq-ro'z isrofgarchiligi — behudaga ketgan halol mehnat, peshona teri, salomatlik isrofgarchiligi. Bizningcha, kibr va isrof so'zlarining yonida qadriga yetmaslik, insofsizlik, loqaydlik, nonko'rlik, bemehrlilik va hatto beshafqatlik, nobud etish, vayron qilish degan so'zlar ham turadi.

Xalqimizda "Nimani xor qilsang, o'shanga zor bo'lasan", degan hikmatli gap bor. Bu hikmatdan qo'rqmaydiganlar — xor bo'lishdan qo'rqmaydiganlar. Hovlisida 10 — 15 sotixdan ko'proq yeri bo'la turib, bu xazinadan unumli foydalanmaydigan qishloqdoshlarimiz Yer yuzi aholisining yetmish foizida bir qarich ham shaxsiy yeri yo'qligini bilarmikin? Hukumat darajasida tomorqa xo'jaligini rivojlantirish bo'yicha ishlab chiqilayotgan qarorlar xalqning to'q va badavlat yashashi, farovon umr kechirishi uchun dasturlamal ekanidan xabardormikan? Albatta, yo'q. Xabari borlar yerga, hovlisidagi tomorqaga xazina deya qarab, allaqachon boy-badavlat yashamoqda.

Ma'lumki, kundan-kunga, yildan-yilga tomorqani parvarishlash tajribasi oshib, elimiz yetishtirayotgan mevalar dasturxonlarimiz ko'riga aylanmoqda. Surxondaryoda 10 sotix yeridagi issiqxonaga limon qadab, 80 million so'm daromad ko'rayotgan. Toshkent viloyatida 4 sotix yerga bodring ekib, 40 million so'm foyda qilayotgan, 20 sotixli issiqxonadan 130 million so'mdan ziyod daromad olayotgan oilalarni ko'rdim. Tomorqadan foydalanishda andijonliklar ham ancha usta bo'lib ketishgan, masalan, bitta odam 16 sotix tomorqadan unumli foydalanib, issiqxonani yildan-yilga kengaytirmoqda, yaqinda zamonaviy uylardan

ham sotib olibdi. Qolaversa, farzandlarini o'qitib, kelajagini yaratmoqda.

Ha, uyg'oq odamlarning vaqti rejalashtirilgan bo'ladi, ular yozda issiqni, qishda sovuqni bahona qilib, televizorning ro'parasida yonboshlab yotmaydi, zamonu makondan nolib, og'irning ustidan, yengilning ostidan yuruvchilar emas.

Qayd etish joizki, qishloqlarimizda yerni qadrllovchilar ko'p. Afsuski, loqaydlar, "Olma pish, og'zimga tush", deb turganlar ham yo'q emas. Ularni yerga ishlov berishni bilmaydi, deyishadi. Yo'q, ular bilmaydiganlar emas, balki bilishni xohlamaydiganlardir. Yerdan foydalanish uchun katta ilm kerak emas-ku axir, o'zgina hafsala bo'lsa, bas.

Ma'lumotlarga ko'ra Yer yuzida 900 milliondan ziyod aholi to'y yil ovqatlanmas ekan. 2024-yilda esa dunyoda ocharchilikdan aziyat chekuvchilar soni 1,6 milliarddan ham oshib ketibdi. Ochiq, shunday xabarlarini o'qisam, ko'z o'ngimga axtat uyumlarini yonida butun dunyo ahliga o'zgin qo'chalarini cho'zib "Non bering!" deya iltijo qilayotgan go'daklar, bolasini bog'riga bosib, bir parcha non, bir qiltum suv so'rayotgan onalar, yegulik izlab o'zga yurtlar tomon xoru sarson ketayotgan egilgan boshlar, non hidi kelayotgan mamlakatlar sohiliga yetay deganda qayiqqlarga og'irlik qilib, bola-chaqasi bilan cho'kib ketayotgan minglab oilalar keladi.

BMT mutaxassislarining fikricha, dunyoda ocharchilik muammosining keskin avj olishi harbiy mojaro va iqlim o'zgarishlari bilan bog'liq. Eldoshim, bir lahzaga bo'lsa-da, o'sha ochlikka mahkum go'daklarning ota-onasi o'rninga o'zimizni qo'yib ko'raylik. Hatto tasavvur qilishning o'zi go'rqinchi! Bola non so'rasa-yu, ota-ona ilojisiz bo'lsa... Demak, hovlimizdagi oltindan qimmat yerga egilish, tuproqni hidlash vaqti yetdi. Axir undan baraka hidi, rayhonu jambillarning bo'yi kelishi bizga bog'liq emasmi? To'kinlik, baxtyorlik xonadonimizni tark etmasligi o'zimizning qo'limizda emasmi?!

Eng yomoni, bir hovlida mehnatga yaroqli uchta odam yashasa-yu, hech biri ketmon ushlab hovlidagi yerga ishlov bermasa, go'yxona, molxonadan chiqqan chiqindilarni ivotib, daraxtlarni oziqlantirmasa, sug'ormasa. Tagi yumshatilmagan bog' qanday bog' bo'ladi?! Tomorqa qanday tomorqa bo'ladi?! Qo'shimcha daromad qayerdan keladi? Xo'sh, bu qarovsizlikdan qotib, toshday metinlashgan yerlarning uvoli tutmaydimi bizni? Dangasalik tufayli bitta-bitta qurib, yo'qolib ketayotgan bol tomuvchi bog'larning uvoli umraydimi?!

Ona yer! Ha, biz, o'zbeklar yerni ona so'ziga qo'shib aytamiz. O'zbekning dalalari bor ekan, u hech qachon zoriqmaydi, nima yeyman deb nolimaydi, birovning qo'liga qaramaydi, o'zganing bog'lariga o'g'rinch qayrilmaydi, begonaning xirmoniga qo'z uzatib g'ururidan ayrilmaydi.

Momo yer! Biz o'zbeklar yer so'zini momo so'zining ham yoniga loyiq ko'ramiz. Momo — onamizning onasi, otamizning onasi. O'zbek momosini tashlamagan, og'ziga non tutgan qo'llarni tishlamagan-ku. Momoning ro'mollari o'p'lgan, etaklarida namoz o'qilgan, bukchayib qolgan yelkasiga mehrlar yopilgan-ku! Qani momo yerdan qarzdorlik tuyg'umiz?! Axir undan uyulish kerak. Biz momo yer oldida momomiz oldida uyatdan qizargandek qizarmog'imiz lozim.

Qish qilichini qayrab turgan yanvar oyida Surxondaryoga bordik. Hosilga kirgan limonzorlardan ketging kelmaydi. Eshitishimcha, limon gullarining hidini tibbiyotchilarimiz "Aromaterapiya" deb nomlab, ayniqsa, qish chog'i asabi toliqqan bemorlarga limon ekilgan issiqxonaga kirib biror soat o'tirishni tavsiya qilishar ekan. Limonning o'zi-ku, necha xil dardga davo.

Bir yil tomorqadan yaxshi daromad ko'rgan oila keyingi yil bundan ko'proq foyda oladi. Keyingi yil avvalgi yildagi kamchiliklarni

takrorlamaydi. Tajriba asta-sekin to'planadi, bu — muvaffaqiyat garovi. Chet elda tajriba katta pulga sotiladi. Surxondaryolik tadbirkor dehqonlar esa limonchilik bo'yicha orttirgan tajribalarini qo'shni viloyatlardan kelgan do'stlariga ham bajonidil o'rgatmoqda.

Hunar o'rganish — mas'uliyatli jarayon. Qadimdan ota-onalar o'z farzandlarini ta'lim uchun ustozga topshirishdan oldin "Eti — sizniki, suyagi — bizniki", deyishgan. Qarang, ustozga tananing asosiy qismi topshirilmog'ga. Hammamiz yaxshi bilim: agar et, ya'ni go'shtga e'tibor berilmasa, avaylanmasa, toza tutilmasa, joiz esa tuzlanmasa, u ayinab, achib, hatto qurtlab ketishi mumkin. Go'sht yaroqsiz bo'ldimi, quruq suyak kimga kerak? Agar bola chiniqtirilmasa, halollikka o'rgatilmasa, mag'lubiyat alamini totib, har lahzada o'zidan kuchlilar borligini his etmasa, suv yuziga chiqqan pufakdan farqi qolmaydi.

Demak, bolamiz avval biz borgan joyga boradi. Shoir aytadi: "Fosiq yoniga borsang, fosiq bo'ladirsin. Oshiq yoniga borsang, oshiq bo'ladirsin". Xuddi shunday, bola johil yoniga borsa, johil bo'ladi. Fozil yoniga borsa, fozil. FarzandAlloh tomonidan berilgan ne'matdirkin, uning uvoli, umrining isrofi bizning bo'yinimizda.

Shukrki, bugun millat uyg'ondi. Ko'rmoqdamiz, uyg'oq bolalarimiz yurt sha'nini yuksak cho'qqilarga olib chiqmoqda. Mana, el ichra yaxshi nom chiqarish, mana, dunyoga dovruq solish! Bu o'g'il-qizlarimiz, avvalo, kamtarin, halol, imon-e'tiqodli odamlarning farzandlari. Ularning har biri yangi O'zbekiston bolalari! Bizga yana minglab Rustamlar, Nodirbeklar, Javohirlar, Shamsiddinlar, Diyoralar, Asilalar, Bahodirlar, Hasanboylar, Abduqodirlar, Pahlavonlar, Asilbeklar kerak.

Axir har birimizning xonadonimizda iste'dodlar yashamoqda. Avvalo, biz ularni tanishimiz, tan olishimiz zarur. Topgan-tutganimizni ularning sog'ligini tiklash, iste'dodini yuzaga chiqarish, imon-e'tiqodini mustahkamlash, mehr-oqibatli, sabru qanoatli, mehnatkash, vatanparvar bo'lishi uchun sarflashimiz zarur. Hoyu havasimiz, maqtanchoqimiz, manmanligimiz yo'lida isrof etsak, kelajak bizni kechirmaydi. Unutmashlik lozimki, kibr va isrofnig badali og'ir. Har bir isrof farzandlarimiz, millat ertasining haqqi, nasibasi evaziga qilinayotganini vijdonan his etishimiz kerak.

Zulfiya MO'MINOVA, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi "Ma'rifat" targ'ibotchilar jamiyati a'zosi.

Buxoroda imkoniyati cheklangan va ishsiz xotin-qizlar uchun inklyuziv IT markazi barpo etilmoqda.

Xalq so'zi Narodnoe slovo MUASSISLAR: O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

Bosh muharrir O'tkir RAHMAT 2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. NASHR indeksi — 229. Buyurtma G-242. 15 407 nusxada bosildi. Hajmi — 2 tabaq. Ofset usulida bosilgan. Qog'o'z bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda. Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuksal olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling. TELEFONLAR: Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53; e'lonlar 71-259-74-55.

Tahriyrga kelgan qo'lyozmalar taqzir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi. Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazeta tahriyriyat kompyuter markazida terildi hamda operator A. Ismailov tomonidan sahifalandi. Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul. Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 55-uy. Navbatchi muharrir S. Mamirov. Musahhih S. Islomov.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxonadan manzili: Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni — 02.00 Topshirildi — 03.10 1 2 3 4 5 6